

Sirojiddin ABROROV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida dotsenti, DSc

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA SUKUKNI FISKAL INSTRUMENT SIFATIDA QO‘LLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda sukuk instrumentlarini joriy etishning huquqiy va institutsional asoslari hamda ularning turizm infratuzilmasini moliyalashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida yashil turizm, transport-logistika va ziyorat turizmini rivojlantirishda sukukning investitsion imkoniyatlari, fiskal afzalliklari va amaliy qo‘llash mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sukuk, islomiy moliya, turizm infratuzilmasi, yashil sukuk, kapital bozori, fiskal diversifikatsiya, investitsiyalari.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые и институциональные основы внедрения инструментов сукук в Узбекистане, а также их значение в финансировании туристической инфраструктуры. Кроме того, на основе международного опыта научно обосновываются инвестиционные возможности, фискальные преимущества и практические механизмы применения сукук в развитии «зелёного» туризма, транспортно-логистической сферы и паломнического туризма.

Ключевые слова: сукук, исламские финансы, туристическая инфраструктура, «зелёные» сукук, рынок капитала, фискальная диверсификация, инвестиции.

Abstract. This article analyzes the legal and institutional framework for introducing sukuk instruments in Uzbekistan and their significance in financing tourism infrastructure. It also provides a scientific justification of the investment potential, fiscal advantages, and practical implementation mechanisms of sukuk in the development of green tourism, transport-logistics, and pilgrimage tourism based on international experience.

Keywords: sukuk, Islamic finance, tourism infrastructure, green sukuk, capital market, fiscal diversification, investments.

O‘zbekiston endilikda Islom taraqqiyot banki instrumentlari va loyihaviy islomiy moliyalashtirish bilan dastlabki tanishuv bosqichidan o‘tib, o‘zining huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirish jarayoniga kirdi. 2021-yilda sukuk kapital bozorini rivojlantirish dasturiga rasman kiritilgan bo‘lsa, 2024-yilda islomiy moliyalashtirish bo‘yicha ilk normativ-huquqiy hujjatlar paydo bo‘ldi, 2026-yilda esa islomiy bank faoliyatini joriy etish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Shu bilan birga, global sukuk bozori hajman yetarlicha katta bo‘lib, O‘zbekiston uchun u ramziy emas, balki pragmatik kapital manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro islomiy moliya bozori ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda jahon bo‘yicha sukuk emissiyasi hajmi qariyb 205 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi, xalqaro segment esa rekord darajadagi 65,6 mlrd. dollarga yetdi. Bu esa O‘zbekiston uchun turizm infratuzilmasini moliyalashtirishda sukukdan bosqichma-bosqich foydalanish imkonini beradi. Eng maqbul ssenariy – yirik bozordan birdaniga ulush olish emas, balki “yashil turizm”, transport-logistika, ziyorat turizmi va rekreatsion infratuzilma bilan bog‘langan kichik hajmdagi suveren yoki kvazisuveren sukuk emissiyalarini amalga oshirishdan iboratdir. Bunda mamlakatning amaldagi tashqi qarz infratuzilmasi hamda islomiy bitimlar uchun soliq neytralligi mexanizmlariga

tayangan holda harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar sukuk oddiy obligatsiyalarning faqatgina diniy muqobili emas, balki uzoq muddatli kapitalni safarbar etuvchi fiskal instrument sifatida qaralsa, O‘zbekistonda ushbu jarayon 2026-yildan emas, ancha avval boshlanganini ko‘rish mumkin. Shundan buyon ko‘plab infratuzilmaviy va investitsion loyihalar ijara, istisna va murabaha mexanizmlari orqali moliyalashtirildi. Biroq bu jarayon ichki islomiy kapital bozorining shakllanishiga emas, asosan tashqi resurslarning jalb qilinishiga xizmat qildi. 2021-yildagi PF-6207-sonli farmonda “Sukuk” obligatsiyalari va boshqa islomiy moliyaviy instrumentlar fond bozorini modernizatsiya qilish dasturiga kiritildi. Mazkur hujjatda sukuk faqat mahsulot diversifikatsiyasi vositasi sifatida emas, balki kapital bozoridagi strukturaviy muammolarni bartaraf etish instrumenti sifatida talqin qilindi. O‘sha davrda erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar hajmi YAIMning atigi 0,3 foizini tashkil etgan, bozor likvidligi past bo‘lgan hamda institutsional investorlar bazasi zaifligi kuzatilgan. Shu sababli sukuk O‘zbekiston sharoitida tor ixtisoslashgan segment emas, balki bank kreditlariga alternativ manba yaratish va kapital bozorini chuqurlashtirish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida shakllandi.

2024-yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatish tartibini tasdiqladi. Shu yilning avgust–dekabr oylarida murabaha, ijara, salam, musharaka va mudaraba asosida 1,1 mlrd. so‘mlik moliyalashtirish operatsiyalari amalga oshirildi. Parallel ravishda BMT Taraqqiyot dasturi, Islom taraqqiyot banki hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hamkorligida “Kapital bozori to‘g‘risida”gi qonun loyihasiga sukuk bo‘yicha alohida bob kiritish va milliy “yashil sukuk” konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar olib borildi. 2024-yil dekabr oyida Markaziy bankning Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashiga a‘zo bo‘lishi ham muhim metodologik qadam bo‘ldi. Bu O‘zbekistonning islomiy moliya sohasidagi xalqaro standartlar – nazorat, risk-menejment va korporativ boshqaruv tizimlariga integratsiyalashuvini anglatadi. 2026-yil 27-martda qabul qilingan O‘RQ–1126-sonli qonun esa institutsional asoslarni ham mustahkamladi. Unda murabaha, mudaraba, vakala, salam, musharaka va ijara instrumentlari belgilandi, tovar ustamalarini QQSdan ozod qilish, investitsion depozitlarni oddiy foiz daromadi sifatida soliqqa tortmaslik hamda islomiy ijara operatsiyalarini moliyaviy lizingga tenglashtirish kabi mexanizmlar nazarda tutildi. Shuningdek, Markaziy bank huzurida Islomiy moliyalashtirish kengashini tashkil etish, 2026-yilda kamida bitta tijorat bankida “islomiy darcha”ni ishga tushirish va 2026–2030-yillarda ikkita to‘liq islomiy bank tashkil etish rejalashtirildi. Bu esa mamlakatda ilk bor “davlat siyosati – normativ hujjat – institutsional nazorat – qonunchilik” zanjirining shakllanishini anglatadi.

Turizm sohasini rivojlantirish nuqtayi nazaridan qaralganda, sukukning barcha shakllarini bir vaqtning o‘zida joriy etish emas, balki maqsadli va iqtisodiy jihatdan samarali modellarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Xususan, suveren yoki kvazisuveren turizm sukuklari uchun ijara va gibril vakala strukturalari eng maqbul variant hisoblanadi. Ijara modeli mehmonxona majmualari, aeroportlar, temir yo‘l stansiyalari, transport-logistika obyektlari, ziyorat turizmi infratuzilmasi va dam olish zonalarini moliyalashtirishga mos tushadi. Vakala esa aktivlar va loyihalarning

aralash portfelini shakllantirish imkonini beradi. Murabaha modeli ko‘proq savdo va aylanma mablag‘larni moliyalashtirish uchun qulay bo‘lsa-da, ikkilamchi bozorda likvid instrument sifatida cheklovlarga ega. Salam mexanizmi esa agro va gastronomik turizm yo‘nalishlarida, ayniqsa kelajakdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini oldindan moliyalashtirishda samarali bo‘lishi mumkin. Musharaka va mudaraba esa turizm startaplari, oilaviy mehmon uylari, servis platformalari va kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishda katta salohiyatga ega.

So‘nggi yillarda sukuk bozori yetuk aktivlar sinfiga aylandi va O‘zbekiston ham xalqaro qarz bozoriga chiqish uchun zarur texnik infratuzilmaga ega bo‘lib ulgurdi. 2025-yil fevral oyidagi xalqaro obligatsiyalar emissiyasi doirasida mamlakat dollar, yevro va so‘mda uchta transhni Reg S/144A formatida, ingliz huquqi asosida, xalqaro birjada listing qilgan holda joylashtirdi hamda hisob-kitoblarni Euroclear, Clearstream va DTC tizimlari orqali amalga oshirdi. Bu esa kelgusida turizm infratuzilmasi uchun mo‘ljallangan ilk suveren sukuk emissiyasini “noldan” yaratish zarur emasligini, uni mamlakatning mavjud tashqi qarz arxitekturasiga integratsiyalash mumkinligini ko‘rsatadi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyoti 2024-yilda 6,5 foizga o‘sgan, konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi YAIMga nisbatan 3,2 foizgacha qisqargan. Shu bilan birga tashqi qarz hajmi 64,1 mlrd. dollarga yetib, YAIMning 55,7 foizini tashkil etdi. Bunday sharoitda sukukning asosiy afzalligi uning oddiy yevrobondlarga qaraganda arzonroq ekanida emas, balki investorlar bazasini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli resurslarni jalb etish, “yashil” va barqaror turizm loyihalarini moliyalashtirish hamda kapital bozorining yangi segmentlarini shakllantirish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ekologik turizm, ziyorat turizmi, madaniy meros obyektlari va transport infratuzilmasini rivojlantirishda “green sukuk” instrumentlari katta fiskal ahamiyat kasb etishi mumkin.

Qozog‘istonda Taraqqiyot banki 2012-yildayoq 240 mln. Malayziya ringgiti miqdorida sukuk joylashtirgan bo‘lsa, 2024-yilda Ostona xalqaro birjasi ilk mahalliy sukuk emissiyasini amalga oshirdi va shariat xulosasi, listing talablari hamda SME-segmentlar uchun maxsus mexanizmlarni ishlab chiqdi. Pokistonda esa ilk ichki sovereign green sukuk ijaraga asoslangan holda 30 mlrd. rupiy miqdorida chiqarilib, iqlim o‘zgarishi va davlat qarzini boshqarish siyosatiga integratsiya qilindi.

Mazkur tajribalar asosida O‘zbekiston uchun bir qator amaliy tavsiyalarni shakllantirish mumkin. Birinchidan, SPV, investorlarni himoya qilish, bankrotlik va soliq neytralligi bo‘yicha ikkilamchi normativ hujjatlar tezkor ishlab chiqilishi zarur. Ikkinchidan, ilk emissiya kichik hajmli, maksimal darajada shaffof va benchmark xarakterga ega bo‘lishi kerak. Uchinchidan, sukuk emissiyalari “green tourism” konsepsiyasi asosida energetika, suv ta’minoti, transport, madaniy meros obyektlari va rekreatsion infratuzilmaga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, Markaziy bank sukukni kelgusida likvid aktiv va garov instrumenti sifatida tan olish rejimini oldindan ishlab chiqishi lozim. Beshinchidan, marketing strategiyasi nafaqat GCC davlatlariga, balki Malayziya va ichki investorlar bozoriga ham yo‘naltirilishi zarur. Oltinchidan, normativ-huquqiy baza real emissiyalar, ikkilamchi bozor savdolari va emissiyadan keyingi mablag‘lardan foydalanish hisobotlari bilan

mustahkamlanishi kerak. Shundagina sukuk O‘zbekiston uchun shunchaki siyosiy trend emas, balki turizm sohasini rivojlantirishda fiskal diversifikatsiya, investitsiyalar oqimini oshirish va kapital bozorining institutsional rivojlanishini ta’minlovchi samarali moliyaviy instrumentga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asadov A. (2024). Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan. *Economies*, 12(8), 220.
2. https://cbu.uz/en/press_center/news/2545086/
3. https://kase.kz/files/emitters/BRKZ/brkze11-12_2021_note%20programme.pdf

**Фарица НАРЗУЛЛАЕВА,
Базовые Докторант ТГЭУ 08:00:05**

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ MICE-ТУРИЗМА НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация.** Статья посвящена анализу проблем и перспектив развития инфраструктуры MICE-туризма (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) в Республике Узбекистан с акцентом на внедрение современных цифровых технологий. Выявлены ключевые барьеры: неравномерное развитие цифровой инфраструктуры, недостаток специализированных объектов, кадровый дефицит и низкий уровень цифровизации бизнес-процессов. Предложены перспективные решения, включая создание Национальной MICE-платформы, развитие региональных цифровых хабов и внедрение технологий искусственного интеллекта, VR/AR и блокчейна. Обосновано, что цифровизация способна существенно повысить конкурентоспособность страны на рынке делового туризма.*

***Ключевые слова:** MICE-туризм, цифровизация, инфраструктура, искусственный интеллект, VR/AR, Узбекистан.*

***Abstract.** The article is devoted to the analysis of the problems and prospects for the development of MICE tourism infrastructure (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) in the Republic of Uzbekistan, with a focus on the introduction of modern digital technologies. The study identifies key barriers, including the uneven development of digital infrastructure, a shortage of specialized facilities, a lack of qualified personnel, and the low level of digitalization of business processes. Promising solutions are proposed, such as the creation of a National MICE Platform, the development of regional digital hubs, and the implementation of artificial intelligence, VR/AR, and blockchain technologies. The article substantiates that digitalization can significantly increase the country's competitiveness in the business tourism market.*

***Keywords:** MICE tourism, digitalization, infrastructure, artificial intelligence, VR/AR, Uzbekistan.*

Введение. MICE-туризм является одним из наиболее прибыльных сегментов мировой туристической индустрии, обеспечивая развитие деловых связей, трансфер технологий и инвестиционную активность. В условиях цифровизации экономики ключевым фактором конкурентоспособности становится внедрение современных технологий, таких как искусственный